

ERGASH JUMANBULBUL O‘G‘LI DOSTONLARIDA BAHOLOVCHI DISKURS

Erkinova Musharraf Abduhakim qizi

Samarqand davlat universiteti

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada diskurs turlaridan biri bo‘lgan baholovchi diskurs va uni shakllantiruvchi grammatik vositalardan biri bo‘lgan subyektiv baho formalari haqida nazariy ma’umotlar berilgan. Shuningdek, ushbu fikrlar isboti sifatida Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Kuntug‘mish” dostonidan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Antroposentrik, diskurs, baholovchi diskurs, ijtimoiy diskurs, subyektiv baho formalari, modal so‘zlar.

EVALUATIVE DISCOURSE IN THE SAGAS OF ERGASH JUMANBULBUL OGLI

Abstract: This article provides theoretical information about evaluative discourse, which is one of the types of discourse and subjective evaluation forms, which are one the grammatical tools that form it. Also, proof of this ideas etamples are given in the epic “Kuntugmish” by Ergash Jumanbulbul ogli.

Key words: Anthropocentric, discourse, evaluative discourse, social discourse, subjective assessment forms, modal words.

Bugungi kunda Antroposentrik nazariyaga asosan amaliy tilshunoslik sohalari keng rivoj topmoqda. Amaliy tilshunoslik tarmoqlaridan biri bo‘lgan pragmalingvistika sohasi ham shu qatorda jadal o‘rganilmoqda. Pragmalingvistika o‘zining o‘rganish obyekti bo‘lgan diskurs atrofida muammolariga yechim topadi.

Shunday ekan, dastlab diskurs haqida qisqacha gapirib o‘tsak. Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan, diskurs murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, matnga qo‘shimcha ravishda matnni tushunish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha lingvistik omillarni (fikrlar, dunyo haqidagi bilimlar, qabul qiluvchining maqsadlari, munosabatlari) o‘z ichiga oladi. “Diskurs” atamasi lingvistika sohasida ham juda ko‘p qo‘llaniladigan atamalardan biriga aylangan. Tarixiy jihatdan bu atama birinchi marta amerikalik tilshunos Z. Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan "Diskur tahlili" deb nomlangan maqolasida ishlatilgan. "Diskurs" atamasining to‘liq ko‘lami so‘nggi yigirma yil ichida tilshunoslikda ommalashib bordi. Tilshunos olim A.Pardaev talqinicha, diskurs bu so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro fikr almashish, bir-biriga ta’sir ko‘rsatish maqsadida lisoniy va nolisoniy vositalardan o‘zlari eng samarali deb hisoblagan shakl va turda amaliy foydalanish jarayoni hisoblanadi. Diskurs bu – jarayon, insoniy faoliyat turi. U lisoniy va yuzlab nolisoniy omillarning mushtarak shaklda bir maqsad yo‘lida voqelanishidir. Boshqa bir manbada diskurs lotincha “discursus” – muhokama so‘zidan olingan bo‘lib, hissiy, bevosita, intuitiv, ya’ni muhokama talab bilimdan farqli o‘laroq, muhokama orqali vosita bilan hosil qilinadigan mantiqiy dalil-isbotli bilim demakdir. Soddaroq qilib aytganda, bu ta’rifda diskursning muhokama qilish, suhbat qilish ma’nosi ilgari suriladi. O‘zbek tilshunosligida diskurs maxsus tadqiqotlar tilshunos Sh.Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Tilshunos matn va diskurs muammolari to‘g‘risida quyidagilarni qayd etadi: “Agarda matn va diskursning har ikkalasi ham inson lisoniy faoliyatining natijasi bo‘lsa, ularni faqatgina zohiriy – formal ko‘rsatkichga asosan “og‘zaki” va “yozma” sifatlari bilan farqlash imkoniga gumonim bor”.

Xuddi shuningdek, ularning birini moddiy ko‘rinishli hodisa, ikkinchisini bu xususiyatdan xoli ko‘rinishda tasavvur qilish qiyin masala. Axir bularning ikkalasi ham natijali faoliyat mahsuli bo‘ladigan bo‘lsa, erishilgan natija moddiy ko‘rinish olishi kerakku? Maqsadli ifodalanadigan kommunikativ mazmun va so‘zlovchi istagi bilan bog‘liq bo‘lmagan holda tinglovchi idrokida (qabulida) hosil bo‘ladigan informativ mazmun bir-birini inkor qilmaydi, aksincha, ular o‘zaro qorishib, birikib, muloqotning

samaraliligini ta'minlovchi omilga aylanadilar. Kommunikativ va informativ mazmunlar uyg'unligi muloqot tizimi makrobirligining yaxlitligini ta'minlaydi. Hozirgi paytda bunday yaxlitlik xususiyatiga faqatgina diskurs ega ekanligi e'tirof etilmoqda. Ye.S.Kubryakova qaydicha, “tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida diskursning umumiy qabul qilingan biror bir ta'rifi mavjud emas” [1,46] . Tilshunoslikda diskurs bir gapdan ham uzunroq til birligiga ishora qiladi. Diskurs so'zi lotincha dis- “uzoqda” ma'nosidagi prefiksdan va “yugurish” ma'nosini bildiruvchi “currere” o'zagidan olingan. Shuning uchun nutq “qochish” deb tarjima qilinadi va suhbat qanday o'tishini anglatadi. Nutqni o'rganish – bu ijtimoiy kontekstda og'zaki yoki yozma tildan foydalanishni tahlil qilishdir. Diskurs tadqiqotlari nutqda tilning shakli va funksiyasini uning kichik grammatik qismlari, masalan, fonema va morfemalardan tashqari ko'rib chiqadi. Gollandiyalik tilshunos Teun van Deyk rivojlanishda muhim rol o'ynagan ushbu tadqiqot sohasi tilning katta birliklari, jumladan, leksemalar, sintaksis va kontekst suhbatlarga qanday ma'no qo'shishi o'rganadi. Shunday qilib, diskurs bu insonlarning o'zaro fikr almashinishi, muloqot qilishi, bir-biriga turli ma'lumotlarni yetkazishi, ma'lumotlarni yetkazish uchun turli vositalardan foydalanishi, ikkala suhbatdoshga ham tushunarli bo'lgan jarayon diskurs hisoblanadi. Diskurs dialogik hamda monologik shaklda uchrashi mumkin. Pragmatik talqinlarga ko'ra diskurs atamasining sakkiz xil ma'noda uchrashi qayd etiladi:

- so'z muqobili;
- frazalardan o'lchami bo'yicha ortadigan birlik;
- nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta'siri, suhbat;
- nutqda so'zlovchi pozitsiyasi;
- lisoniy birliklardan foydalanish;
- fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
- matn hosil bo'lish shartlarini tadqiq etishga mo'ljallangan nazariy qurilmalar.

Boshqa ma'lumotlarda diskursning janr kabi ekanligi, nutqiy janr – tipik tuzilishi, lisoniy vositalardan foydalanishning o'ziga xosligi, aniq adresat, ma'lum kommunikativ maqsad va informativlik, imperativlik, etiketlik kabi jihatlari bilan

ajralib turuvchi nutq turi ekanligi yoritiladi . Maxsus olib borilgan tadqiqotlarda diskursning ijtimoiy tabiati orqali diskursning publitsistik diskurs, siyosiy diskurs, ilmiy diskurs, badiiy diskurs, baholovchi diskurs kabi yangi tushunchalarning yuzaga kelganligi qayd etiladi. Aynan bu tushunchalar orasidan baholovchi diskursga to‘xtalamiz. Baholovchi diskursni hosil qilishda subyektiv baho ifodalovchi grammatik formalar asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman, so‘zlovchining obyektiv borliqqa yoki o‘z nutqiga o‘zi tomonidan belgilanadigan salbiy yoki ijobiy munosabati grammatikada modallik kategoriyasi termini bilan yuritiladi.

Hozirgi o‘zbek tili grammatikalarida “subyektiv baho formalari” nomi bilan, asosan, ot va sifat tarkibida o‘rganilib kelayotgan -gina, -choq, -cha, -chiq, -loq, -jon tipidagi formalar ham, odatda, so‘zlovchining obyektiv borliqqa, o‘z nutqiga bo‘lgan modal munosabatlarini bildiradi.

Grammatika, darslik va qo‘llanmalarda fe‘lning mayl formalari, yuklamalarning bir qismi, shunga o‘xshash subyektiv baho formalari modallikni ifodalash haqida fikrlar mavjud. Modal so‘zlar esa maxsus guruh sifatida ajratiladi.

Odatda, subyektiv baho formalari haqida gap ketganda, yuqorida ko‘rsatilgan formalar ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Lekin shunday so‘zlar guruhi borki, ular ba‘zan ko‘chma ma’noda, ba‘zan egalik affikslari bilan birgalikda modal ma’nolarni (kichraytirish, erkalatish kabi) ifodalashga xizmat qiladi.[2]

Quyida Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Bulbul taronalari” besh tomlik dostonlari turkumida keltirilgan “Kuntug‘mish” dostonidan berilgan parchalarda subyektiv baho formalari yordamida baholovchi diskursning qay darajada yuzaga kelganini ko‘rib chiqamiz.

Qatorda yuk tortgan norcha lo‘klarim,
Dushmanga ketmagay oru keklarim,
Sirdoshlarim, vallomatim, beklarim,
Do‘stlar-ay, ko‘ngil bir yor istaydir.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Sen ham bir bog‘chada bog‘ning gulisan,
Otangman enangning jonu dilisan,
Men bilgimda ulug‘ shohning ulisan,
E davri-davronim, qaydin bo‘lursan?

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Baland tog‘ning terskay beti qor bilan,
Bozirconing ishi lo‘kcha nor bilan,
Uch oychalik yo‘ldan yor izlab kelib,
Ne bo‘ldi, kulmaysiz, to‘ram, ror bilan?

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Yuqoridagi berilgan misollarda norcha, bog‘cha, lo‘kcha kabi so‘zlarda subyektiv baho formasi ifodalovchi shakl -cha qo‘shimchasi orqali baholovchi diskursning yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Qirg‘iy degan qushlar bular qiyoda,
O‘limcha yomon ish bormi dunyoda?
Suluvligi, buvim, sizdan ziyoda,
Parizod insonni ko‘rdim, buvishim.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Bul judolik meni qildi sargardon,
Qaytayin, topmadim dardima darmon,
Atib yubor Qalandarning o‘zini,
Mo‘min bo‘lsang, yur demagin, akajon.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Dam shu damdir, o‘zga damni dam dema,
 Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
 Bu mehnatga xafa bo‘lma, bo‘yingdan,
 To‘rang eson, sarvinozim, g‘am yema.
 Kamlikning kamoli bordir, sanamjon,
 Menmanning zavoli bordir, bo‘yingdan.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Judolikni menga egam solmasin,
 Hech kimsa dunoda menday bo‘lmasin,
 Ikki go‘dak armondan yo‘lda o‘lmasin,
 Menday bo‘lsa, bu dunyoga kelmasin,
 Jon og‘alar, meni o‘ldirib ketinglar,
 Go‘daklar qolganini ko‘zim ko‘rmasin.

(“Kuntug‘mish” dostonidan)

Shunda Go‘rkiboy bechora nima derini bilmay: – E, Mohijon, yetimlik qursin, ranguga qaragam, za‘faronday sarg‘ayibsan. Mening dam rangim sarg‘aygan, deb yig‘layman. Menga ishing bo‘lmasin, sen savdongni qila ber, – dedi. Mohiboy nima dedi, nima qo‘ydi, yasovulboshi bilan chiqisib, to‘rasi bilan qo‘shilib, hovlisiga borib yura berdilar. Go‘rkiboy shu hovlida enasining borini biladi, Mohiboy bilmaydi. (“Kuntug‘mish” dostonidan)

Yasovulboshining yetimi, – dedi. Shunday degandan irg‘ib turib, chiroqni yoqib, eshikni ochib: – E, ukajon, kela bering, keta bering, bizlar bilan oshna-tanish bo‘la being, har qancha bo‘za kerak bo‘lsa, olib keta bering, aslo, bemalol, – deb katta bir ko‘zani orqalatdi. Mohi bir katta ko‘zani ko‘tarib yetib keldi. Go‘rkiboy aytdi: – Qirq bo‘lmasa chortang bo‘lib ichar emish. (“Kuntug‘mish” dostonidan)

Ushbu misollardan aynan so‘zlovchining o‘z fikriga nisbatan subyektiv bahosini, ya‘ni ijobiy yoki salbiy munosabatini birdirishida xizmat qiluvchi qanday grammatik

vositalar yordam berganligini va bu baholovchi diskursni qay darajada yuzaga chiqarganligini ko‘rishimiz mumkin. Baholovchi diskurs ifodalanganda ba’zan subyektiv baho formalari ham ishtirok etmasdan, faqatgina ohang yordamida yoki baho ifodalovchi so‘zlar yordamida ham ifodalanadi. Bunga yuqoridagilardan sarvinozim, buvishim kabi misollarni keltirishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, baholovchi diskurslar adresat va adresant o‘rtasidagi muloqotda ularning bir-biriga munosabatini yaqqol aks ettirishda, fikrga ekspressivlikni kuchaytirishda, qolaversa, muloqotdan ko‘zlangan maqsadning to‘liq amalga oshishiga yordam berishi bilan amalda qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. M. Ҳақимов. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари – Т. 2013. 173 б.
2. Р. Қўнғуров. “Субъектив баҳо формалари” номли мақоласи.
3. Ш. Сафаров. Прагмалингвистика, монография – Т. 2008. 318 б.